Yangiyo’lning Kengkechek mahallasidan sopollar bilan ko’milgan qabr topildi

2020-yilning 16-sentyabr kuni Toshkent viloyatining Yangiyo’l tumani, Kengkechik mahallasi, Na’muna ko’chasi 1-uyda yashovchi Abduvohid Umirzoqov hovlisida quduq qazish jarayonida bir necha sopol buyumlar va chirindiga aylangan suyak qoldiqlari chiqib qolgan. Bundan xabar topgan arxeolog akademik Axmadali Asqarov shogirdlariga (O’zR FA Tarix istitutidan D.Normurodov, U.Ismoilov), O’zR FA Milliy arxeologiya markazidan B.Isabekov va Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakultetidan X.Matyaqubov) topilgan ashyolarni olib kelishni aytadi. Quduq qazishilgan joydan olingan 11 dona sopol buyumlar ilmiy o’rganish uchun O’zR FA Tarix istitutiga olib kelindi.

Dastlabki taxminlarga ko’ra olib kelingan sopol idishlar Toshkent vohasida keng tarqalgan arxeologik Qovunchi madaniyatining II bosqichi ya’ni II – IV asrlarga oidligi taxmin qilinmoqda va o’rganilmoqda. O’rganish natijalari e’lon qilinadi.

O’zR FA Milliy arxeologiya markazi k.i.x. Behzod Isabekov.